



OLTOY TILLARDA “QA” O‘ZAGINING LEKSIK - SEMANTIK TARAQQIYOTI

*Usmonov Qarshi Bahriddinovich, SamDU
Sariyev Sherzod Norqo‘ziyevich,*

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Samarqand kampusi.

Samarqand, O‘zbekiston

<https://orcid.org/0000-0002-7607-364X>

e-mail: sherzodsariyev@gmail.com

I-qism

Oltoy tillarini (turk, mug‘ul, tung‘uz - manjur) o‘rganishda muhim masalalardan biri shu tillar orqali o‘zakning bobo shaklini aniqlashdan iborat. Etimologik taqiqotlar yordamida zamonaviy bosqichda xohlagan ko‘p bo‘g‘inli va ma’noli qismlarga bo‘linmaydigan so‘z dastlab birinchi bo‘g‘in va affiks (affikslardan) topilgan edi. Ammo savol tug‘iladi: hamma oltoy tillarda CVC o‘zagi CV ga nisbatan yetakchilik qiladi, unda bu o‘zak ham tarixan (CV+C) shaklda bo‘lganmi, agar 2-undosh affiksali dementi bo‘lsa yoki CV ko‘rinishidagi o‘zaklar CVC o‘zagidan tashkil topgan bo‘lib har xil sabablarga ko‘ra ikkinchi undosh tushib qolganmi?

Bu masala bilan turkiyshunoslar qiziqishdi va ikkala qarashning o‘z tarafdorlari bor. Ikkinchi qarashni N.A.Baskakov quvvatlaydi: “C+V+C” ko‘rinishidagi o‘zak ancha qadimiyroq, masalan, kal – “qolmoq, bo‘l, bo‘lmoq” va boshqalar. Qolgan olimlar esa “C+V+C” o‘zagining birinchi yoki oxirgi undoshning reduksiyaga uchraganidan hosil bo‘ladi. Masalan, e, bo‘lmoq (y) yer - o‘rta



chig'atoy. Yer -l- e-ir- "bo'kmoq", yoki faqat oxirgi undoshning reduksiyasi natijasida C+V (+C), masalan: de- "demoq", dje- "yemoq" (dey-yey- o'rta no'g'oy; yangi uyg'ur va bosh deyish, "demoq" yeyish "ovqat yeyish"). Qarama-qarshi qarash foydasiga 1961 yilda A. Zayanchkovskiy o'zining katta bo'lmagan materiali bilan chiqdi. U bu savol bo'yicha qarama-qarshiliklarga ahamiyat berib, bir necha adabiyot keltiradi, u Gamsted va V. Bangni alohida ta'kidlab o'tadi. Ikkala tomonning dalillari, balki hammasi bo'lmasa ham, ishonarlidir. Ikkinchi undosh-j-ning je-"yemoq" -de "demoq" va boshqa so'zlarda mavjudligi proteza natijasi ekanligiga ishonish qiyinroq. Balki bu o'zakdagi ikkinchi undoshning relektidir, xuddi turk tilidagi su "suv" so'zidek, ammo mansublik affiksi bilan: suyu – "uning suvi" -susu ning o'rniga; qiyos: boshqa turkiy tillarda, shu jihatdan qadimgilarda ham sub, suv, suy. Ikkinchi undosh -j- bilan keladigan so'zlarning shakllari nafaqat yangi uyg'ur, buni N.A.Baskakov ta'kidlab o'tgan, balki qadimgi uyg'ur va boshqa qadimgi turkiy matnlarda ayniqsa hozirgi zamon sifatdoshi shakllarda uchraydi: tijür, jijür. Ammo baribir bu yerda -j- affiksdan kelib chiqqan, qiyos tip tijür (vig/VC) karakterli aylanish. Bundan tashqari -jur shakli yana ikki bo'g'inli unli bilan tugaydigan fe'llar qatorida ham aniqlangan.

Bu yerdagi -j o'zak elementi ekanligiga ishonish qiyin: sözlajür (T.T.V.B.), aqijür (w), udijür (kach 11) A.N.Kononovning o'g'iz tillari uchun karakterli -j- ning negizidan so'ng unlikning ravishdosh -ch ga o'xshash vaziyatdir, masalan, deyip "deb" va bosh, unda j ravishdoshlarining mustaqil affiksi sifatida ifodalanadi, u tarixan boshqa ravishdoshlarning affiksi bilan birlashgan edi,-p- -b.

Bimdan ko'rinib turibdiki bu savollarni topish uchun yangi-yangi dalillar va farazlarning har tomonlama tekshirilishini talab qiladi. Masalan, o'zakdagi ikkinchi undosh masalasi boshqacha yechimda bo'lishi mumkin. Masalan, bobo tilning har xil davrlarida CV turdagi o'zaklar mavjud edi (1-davr), ular keyinchalik ko'payadi.



CV+C > CVC (II-davr), undan keyin esa ba'zi bir o'zaklarda ikkinchi undoshning tushib qolishi kuzatiladi. Boshqacha qilib aytganda yuqoridagi farazlar, balki bir-birini inkor etmas. Bir qator turkiy o'zaklarning CV qatoriga borib taqalishi imkoniyatini olimlardan birinchi bo'lib V.V.Radlov ko'rsatib o'tadi.

U o'zining “Вводные мысли описатели морфологии турецких языков” nazariy asarida turkiy so'zda morfologik elementlarning barchasi (mustahkam birlashish) nazaryasini yaratadi bu nazarya urxun-enasoy yodgorliklarning, qadimgi uyg'ur yodgorliklar hamda sibirdagi kichik turkiy xalqlarning o'tgan asrning oxirida dinifrofka qilingan tillarni o'rganishi natijasidir.

Yuqoridagi yodgorliklar va kichik xalqlar berilgan tillar bilan qiyoslaganda, bu tillar uzoq adabiy taraqqiyot yo'lini o'tagan, bularga o'zbek chig'atoy usmonli turk va boshqa tillar kiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, turkiy so'zning morfologik elementlari butun taraqqiyot tarixi davomida “o'sib borgan”, bunda affikslar o'zak bilan birga yangi negizda birlashadi va o'rtada o'zaro yangi affikslarga ham birlashib faol tarqalib, yangi analogik tuzilmalar tashkil qiladi. Buning natijasida V.V.Radlov quyidagi fikrni aytib o'tadi: “Biz bir bo'g'inli turkiy o'zaklarni ko'rib chiqayotganimizda, ba'zi-bir bo'g'inli ommalashgan negizlarni o'zak deb hisoblash kerak emas, aksincha ular yo'qolib ketgan negizning qandaydir negiz hosil qiluvchi birlashuvdan hosil bo'lgan. Misol tariqasida V.V.Radlov baq, paq, “bog', bog'lam|, bunda -ka fe'liga -n affiksning birlashuvida hosil bo'lgan, bu misol “Qutadg'u bilig” asarida *bar ba sek* –“buzmoq” sin – “sindirmoq” misollari Urxun enasoy yodgorliklarda uchrab, bunda ham si –“sindirmoq” fe'lida -k va -p affikslarining qo'shilishida hosil bo'lgan. J.Ramsted o'zining asarlarida V.V. Radlovning **fuzil** haqidagi nazaryasiga tayanib, o'zining oltoyshunoslikka bag'ishlangan asarining kirish qismida shu haqida yozadi va biz bu yerda bizni qiziqtirayotgan mavzu uchun muhim “etimologik indenfikatsiya”ni ko'rishimiz mumkin: Turk *jaq* –“yoqmoq”, “yondirmoq” chivash s'ut (jat –“yoqmoq”, turk jan “yopmoq” bu so'zlarning



negizida ja o'rt. mug'. alin –“yolqin” bor) Ammo baribir na V.V.Radlov va na J.Ramsted hozirgi vaqtda biz uchun muhim bo'lgan bir tomondan bir undoshdan iborat negiz, ikkinchi undosh bilan, ikkinchi tomondan ikki undoshdan iborat negiz uchinchi, to'rtinchi undoshlar bilan birlashuvidagi farqlarni alohida ta'kidlab o'tmaydilar.

V.V.Radlov va J. Ramstedlardan keyin V.Bang ham turkiy tillarning tarixiy morfologiyasiga bag'ishlangan ko'p sonli tadqiqotlarida fuzil hodisasini hisobga olgan. Hozirgi davrda morfologik elementlarning negizlar bilan birikishi ko'pchilik tomonidan e'tibor qilingan. Ammo ba'zi asarlarda bu hodisa doirasida o'zakning ikkinchi undoshi ham kiritilmoqda. Qiyos: masalan, E.V. Sevortyanda: “turk mu-“uyishmoq, moslashmoq, muvofiq kelmmoq, munosib bo'lmoq” va uz –“munosib, muvofiq” fe'lidagi u va z oxirgi undoshlar, ehtimol so'z yasovchi ko'rsatkichlardir”. V.V.Radlov va Ramstedlarning bu fikrlariga A.N.Kononov ham qo'shiladi.

A.Zayenchkovskiyning “nuqsonsiz misollar”i orasida (bu materiallarni shunday atab K.Menges adolatli ravishda o'zining taqrizida baholaydi). Qa o'zagi tarixiy reflekslar bilan tasdiqlangani ko'zga tashlanadi: qa –“qo'ymoq” (M.K. 111. 249.) qap –“qoplamoq” (hamma turkiy tillarda).

Bu maqolada qa o'zagi bo'yicha turkiy tillarda qo'shimcha material kiritilib mug'ul va tug'uz-manjur tillarining analogik - o'xshash materiali bilan qiyoslashga bir urinishdir. M.Koshg'ariy qa fe'lini yag'mo qabilasining laxjasida aniqlaydi, chigillar laxjasida esa (bu tilni M.Koshg'ariy “to'g'ri” til deb hisoblaydi) bu ma'noda qal'a shakli ishlatiladi. Bu fe'l yoqut va nug'oy tillarida ham saqlangan: “yoqut xala –“quymoq” biror narsani bir narsa uchun sarflamoq”, “yuklamoq” (kemani), no'g' - kola 1) “qo'ymoq”, “joylamoq”: 2) “qupmoq”, “barpo qilmoq. Qal'a fe'lidagi -la elementini affiks deb hisoblash kerak: hind ovropashunoslikda bu elementlar uchun “detirminativ” yoki “kengaytiruvchi” terminlari qo'llaniladi.



Turkmanga gāl fe'lida ikkita fe'l mos keladi: 1) gali>gal –“turmoq”, “ko‘tarilmoq” qiyos: xuddi shu fe‘ldan turk kaldir –“ko‘tarmoq”; 2) ga+1 > gal – “ko‘paymoq”, “qo‘shilmoq”. Ikkinchi fe‘l ko‘rilayotgan qa o‘zagi bilan munosibdir, fe‘lning passiv refleksi mohiyati -l elementining turkiycha harakteriga ega ekanligini ko‘tsatadi yana bir turkman gal -,tur. Hal – “qolmoq fe‘li hamda o‘zagiga borib taqaladi. Bu yerda semantik taraqqiyot quyidagicha: “qolmoq”, “saqlamoq” birorta bilan qolish yoki biron narsa bo‘lmoq: biror bir vaziyatda bo‘lmoq (qolmoq): orqada qolmoq kabilarni bildiradi.

Qa fe‘lini chog‘ishtirayotganda kengayishi harakterida qat- fe‘lidagi -t- elementi ham aniqlanadi, bu fe‘l qadimgi yodgorliklar va hozirgi turkiy tillarda keng tarqalgan. Qat fe‘lining semantikasi keyingi davrlarda ham taraqqiy etadi. U nafaqat bir narsani boshqa bir narsa bilan birlashtirmoq, taxlamoq ma‘nosini, balki turk tilidagi singari “qo‘shmoq, qo‘shib qo‘ymoq” (bir narsani boshqa bir narsa bilan qo‘shmoq), “qorishtirmoq” (biror narsani qorishtirib yubormoq, odatda eritmalarni).

Qirg‘iz tilida “qo‘shmoq, qo‘shib qo‘ymoq” ma‘nosidan tashqari, “yoshirmoq” ma‘nosi ham rivojlandi. *Kaynuma katib aldim* “qo‘ynimga yashirdim” Yashirmoq - yashirinch qo‘shmoq, o‘zining foydasiga qo‘shib olmoq deganidir. Yoqut, boshqird, qozoq va tibut tillarida bu fel quyidagicha ma‘noda qo‘llanilgan: “o‘ramoq, yigirmoq, eshmoq (ipni va k.) ; boshqirt va no‘g‘oy tillarida “yigirmoq” (ipni) ma‘nosidan tashqari semantikaning taraqqiyoti natijasida: solmoq, ovqatga ziravor solmoq: ashkakorot katiy- “to‘rvaga gurach qatiq solmoq”. Bunga yana turk katik- “ziravor nomga so‘radi”.

Yuqorida ko‘rilayotgan so‘zlar uyasiga -qar fe‘lini ham kiritish kerak. M.Koshg‘ariy qar va qat fe‘llarining sinonimik xususiyatini ta‘kidlab o‘tadi. (M.K.)

Hozirgi tillardan o‘zbek tilida qar fe‘li saqlangan: qar- 1) “qarshi turmoq”, 2) “qormoq, qorishmoq” va turk tilida kar 1) “kiritmoq” 2) “to‘kmoq” 3) “qormoq”, suv bilan qormoq, turg‘un birikmasi ham qiyoslanib unda "chigallashib kelmoq"



ma'nosi bo'lib unda birinchi so'z -ma fe'lidan yasalgandir. Boshqa tillarda bu fe'lning har xil hosilalari berilgan masalan: boshq kazish - qarshi bo'lmoq, qaysarlik qilmoq, qattiq turmoq. Ularning semantikasi dastlabki ma'nosining taraqqiy etganini ko'rsatadi: bu turk kar va o'zbek qar so'zlarini qiyoslaganimizda ko'rishimiz mumkin. Nug'oy tillarida karis fe'li bilan birga: 1. "qo'shmoq, chuvalib ketmoq; 2. "qo'shilmok" (qiyos: karij- "daromad") karas fe'li deyarli boshlang'ich ma'nosini saqlab qoldi, bu quyidagicha: "yordamlashmoq, biror narsani birga qilmoq". Loy asha narasin yuri "u to'yga ovqat tayyorlashga yordam berayapti". Yuqorida keltirilgan qat- kar- fe'llarining har xil ma'nolari dastlabki ma'noga solishtirilgan.

Biz yuqoridagi modifmasllarni olib tashlaganimizda simantikaning bo'linmaydigan, boshlang'ich ma'nosiga "predmetlarning qandaydir mazmunga erishishi borasidagi harakat", bu ishonchli tarzda qa-, qala-, qat- va qar- fe'llari bitta o'zakka borib taqalishini -la, t va r elementlari esa farmativlardir ular har bir shaklning semantik ajralishi ta'sirida o'zak bilan birlashganini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan fe'llardan tashqari qa- o'zagiga juda ko'p so'zlar borib taqaladi. Ular nutqning boshqa so'zlariga xos. Bu so'zlardagi ikkinchi undosh xuddi fe'ldagi singari r, l, t undoshlaridir. Eng katta qiziqishni qara -ko'p sonli", ko'pgina, ko'p miqdordagi so'zi uyg'otadi, u o'zining dastlabki ma'nosini uzoq o'tmishda yo'qotgan bo'lib uning ma'nosi o'xshash analogik semantikasidagi so'zlarga qarab aniqlanishi mumkin. Qara so'zining yakka ishlatilishi uning semantikasining juda torayganini anglatadi – "olomon, xalq, xalq ommasi" u bu ma'noda qara ll "qora" so'zi bilan (chatishib), qorishib bu orqali ijtimoiy mazmun kasb etadi. "qora xalq, oddiy xalq, past tabaqa". Bizlar buni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin: Süsi kelti qaraeën jixdim begi qacdi "uning qo'shinini tor-mor qildi, lashkarboshi beklar qo'shini".



Qara qabusi barca qarni ucun / bobun tüvsīgi barça bayzi ücün - "Oddiy xalqning g'ami bir burda non topish/ xalqning hamma urinishlari oshqozon uchun (Q.B.N 3HQ).

Oxirgi misolda qara so'zi bocun so'zining sinonimi sifatida qo'llanilgan, buning ma'nosida hech qanday qora bo'yoq yo'q, chunki so'zning ichki tuzilishi ko'plik, jamlash ma'nosi bilan bog'liq: bad /bos /baj "urug', qabila". Qara so'zi juft bo'lib ishlatilganda xuddi shunday ko'plik ma'nosida ishlatiladi jilqi: jilqu qara "hayvonlar" masalan: (tonuz) tonuz kunda jilqisi qarasi olur "to'ng'iz kunida uning hayvonlari o'ladi." (T.T. VII) qara 1 so'zi qamay so'zi bilan birga qo'llanilganda, u jamlash ma'nosini bildiradi, quyidagi misol "Fol kitobi" dan olingan: Qanliq süsi abqa önmis sayir icra elik kejik kirmiz qan eligin tutmis qara qamay süsi ögirer "Xon qo'shini ovga chiqdi; qurshovga bug'ular tushdi uning qo'shini bunga xursand edi (T h s 11) yuqoridagi misol bizga "Kuntegin yodgorligi" dan quyidagi jumlani tushinib olishga yordam beradi: qara turgac bodun qap icikdi – "butun turgash xalqi to'liq bo'ysindi" (K.G.)

Qadimgi turkiy yodgorliklardan qara so'zidan tashqari qalin so'zi ham ko'plik ma'nosini bergan, u hozirgi tillarda keyingi semantik taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi: turk kalin 1) "qamen quyuq zich", 2) "qo'pol" 3) befahm, axmoq, to'mtoq"; qirg'iz kalin 1) qalin, quyuq, zich 2) qalin, yo'g'on; o'zb. qalin 1) "qalin" 2) "issiq" 3) "zich" 4) "yo'g'on, quyuq, qalin" 5) "mo'l, quyuq"; "ko'p, mo'l".

O'zbek va qirg'iz tillarida qalin so'zi biroz ko'plik ma'nosini saqlagan qiyos: masalan: o'zbekcha: Bozor kuni odam ko'p; qirg'iz: kaliñ el – "juda ko'p xalq"; kalin toy – "katta to'y". Qadimgi yodgorliklarda qalin so'zidagi ko'plik ma'nosi boshqalarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi qalin jayiqqa qajmatin "ko'p sonli dushmanga e'tibor bermay"(E 28).



Qalın sü jajılsa için bulyasur “ko‘p sonli qo‘shin ikkilanib tursa, uning tartibi buziladi” (Q.B.M 176) qalin so‘zi bilan kelgan fe’llarda jamlash ma’nosi ko‘zga aniq tashlanadi: qalañyur, qalanur - "ko‘paymoq, o‘smoq" (suv)

Shu narsa qiziqarlilik hind-ovropa so‘zlarida ham xuddi shu ma’nodagi so‘zlarning analogik semantik taraqqiyoti kuzatiladi: “majlis nomlanishi - xet pam kus - otlashgan - panku “butun, barcha” sifatini ifodalovchi, u odatda qo‘shin so‘zi bilan birga kelib “butun qo‘shin” ma’nosida qo‘llanadi bu so‘zlardagi o‘zakning dastlabki ma’nosi “kengligi”, “quyuqligi” ni aniqlashda qarindosh bo‘lgan xet pangarit – “butunligicha, butunlay” so‘zi foydalanadi, u qo‘shin so‘zi bilan birgalikda (anitoz yozuvlari va boshqa matnlarda) qo‘llanadi, qiyos: xuddi shu o‘zakdan hosil bo‘lgan pangarila – “ko‘paymoq” fe’li va hind - ovropa tillarining boshqa qarindosh so‘zlari (grek, paxol, “qalin” qat. hind boku “quyuq”, ko‘p sonli va boshqalar.

Qa o‘zagidagi ikkinchi undosh -t dan yasalgan “qat, qatlam”; qat, qator so‘zi hamma turkiy tillar uchun umumiydir. Qat - bu “biror narsaning ustuni qoplovchi modda miqdori”, ya’ni biror narsaga aniq tartibda biriktirish. Bu dastlabki ma’nodan qo‘shimcha ma’nolar rivojlandi, masalan tirk qat – “qator” predmetning (shaxslarning) muayyan tartibda joylashishi majmui. Bu yerda qatlam so‘zining dastlabki ma’nosida bog‘lanayotgan predmet bilan bog‘lanish xuddi yo‘qolganga o‘xshaydi: bu so‘z sanoq so‘z bo‘lib ishlatilishi mumkin, u bunda "marta" bir marta ma’nosida qo‘llaniladi: muayyan, “qator” ni belgilashda “qavat” ma’nosini tashkil qiladi. Ikkinchi undosh bilan hosil bo‘lgan hosilalarni ko‘rib chiqamiz. A.Zayenchikovskiy keltirgan qap - qopmoq “tutmoq” fe’lidan tashqari ularga quyidagi fe’lni kiritish lozim: turk: kapa 1) “bekitmoq, qoplamoq” 2) qulflamoq 3) to‘ldirmoq 4) tugatmoq va shu fe’ldan yasalgan yasamalar: qad uy qapoy // qapiy (turk kope) // qaruy “eshik” va qaraq (tur. karak) “qopqoq”. Buyerda “qoplamoq” semantikasi - t bilan yasalgan ma’noga o‘xshash, u qat “qatlam” ma’nosini bergan.



Boshqa tur. kappa soʻzining uchinchi maʼnosini beruvchi uchinchi qator dastlabki “birlashtirmoq”, “koʻpchilikka yetkazmoq” semantikasiga yaqindir. Xuddi shu ikki qatorni ham qadimgi hamma qad. Uygʻur matnlarida koʻrish mumkin masalan tur, kap “idish tovoq” (yaʼni biror narsa saqlanadigan idish) va tashqi qoplama qorpoq va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Баскаков Н.А. Албанский язык. М., 1958.
2. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1969. – 383 с.
3. Гаджиева Н.З. Проблемы тюркской ариальной лингвистика. М., 1975.
4. Древнетюркский словарь / Ред. В.М. Наделяев, Д.М. Насилов, Э.Р. Тенишев, А.М. Щербак. – Л.: Наука, 1969. – 676 с.
5. Koshgʻariy M. Devonu lugʻotit turk. 3 jildlik / tarjimon S. Mutallibov. – Toshkent: Fan, 1960. –1963.
6. Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков. Л. 1977 (глагол). Л, 1981